

**SIRTQI BO'LIM TALABALARIGA XIZMAT KO`RSATISHDA
ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.**

Davronov M.J

Turdibekova M.O

Shodmonov D.A

**TATU SF 3-bosqich talabasi*

***TATU SF 2-bosqich talabasi*

****TATU SF “Raqamli va ta'lim texnologiyalari”*

kafedrasi katta o`qituvchisi

shodmonovd1985@gmail.com

Аннотация: В данной работе рассматривается создание веб-сайта, направленного на автоматизацию рабочих процессов заочного отделения. Исследуются деятельность заочного отделения, определяются потребности пользователей, рассматриваются архитектура системы и выбор технологий. Также разработаны основные разделы сайта — ресурсы по предметам, курсы, наставники, расписание занятий, сервис расчёта GPA, анкета для выбора кружков и бронирование мест в общежитии. Практическая значимость сайта заключается в упрощении образовательных процессов и повышении их эффективности.

Abstract: This paper is dedicated to creating a website aimed at automating the work processes of the external department. It analyzes the activities of the external department, identifies user needs, and discusses system architecture and technology choices. The main sections of the website — course resources, mentors, class schedules, GPA calculator, extracurricular club selection, and dormitory reservation services — are developed. The practical significance of the website lies in streamlining educational processes and improving their overall efficiency.

Kalit so`zlar: Sirtqi bo`lim, avtomatlashtirish, veb-sayt, ta'lim resurslari, GPA hisoblash, dars jadvali, kurslar, mentorlar, to`garak.

So‘nggi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich rahbarligida mamlakatimizda ta’lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va barcha sohalarni avtomatlashtirish bo‘yicha qator muhim hujjatlar va tashabbuslar qabul qilindi. Jumladan:“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi (2023-yil): bunda ta’lim tizimining zamонавиylashuvi va raqamli yechimlardan foydalanish bo‘yicha aniq yo‘nalishlar belgilangan.

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi (2020-yil): barcha sohalarni raqamlashtirish va onlayn xizmatlarni rivojlantirishga qaratilgan dasturiy hujjat.



2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi: ushbu hujjatda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, shuningdek, ta’lim jarayonlarini avtomatlashtirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Shuningdek, 2023-yilda e’lon qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Ta’limni rivojlantirish milliy dasturi”da ham zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishga alohida urg‘u qaratilgan.

Ushbu hujjatlar va tashabbuslar mamlakatimizda ta’lim tizimini raqamlashtirish va avtomatlashtirishni jadallashtirishga xizmat qilmoqda. Raqamli texnologiyalar va onlayn platformalar yordamida ta’lim jarayonlarini samarali tashkil etish nafaqat o‘quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, balki ta’lim muassasalari faoliyatining barcha jihatlariga yangicha yondashuvni ta’minlaydi. Ayniqsa, sirtqi ta’lim bo‘limlarida talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi aloqalarni yaxshilash, ma’lumotlar oqimini tezlashtirish va har bir foydalanuvchining ehtiyojlariga moslashgan xizmatlarni yaratish muhimdir.

Shu jihatdan, sirtqi bo‘limning ish jarayonlarini avtomatlashtirish dolzarb va zarur vazifa hisoblanadi. Avtomatlashtirish orqali talabalar o‘z vaqtida va sifatlari ma’lumotlarga erkin kirish imkoniga ega bo‘lib, o‘qish jarayonidagi ko‘plab qiyinchiliklar kamayadi. Ma’lumotlar bilan ishslash samaradorligi oshadi, chunki axborotlar tezkor tarzda tizimga kiritiladi, yangilanadi va talabalar hamda o‘qituvchilar o‘rtasida oson almashiladi. Bu, o‘z navbatida, o‘quv jarayonini yanada shaffof va tizimli qiladi. Bundan tashqari, sirtqi bo‘lim ishlarini avtomatlashtirish o‘qituvchilar va ma’muriyat xodimlarining ma’muriy yukini sezilarli darajada kamaytiradi. Qog‘oz ishlari kamayib, ma’lumotlarni qo‘lda boshqarish zarurati yo‘qoladi, bu esa xodimlarga asosiy ta’limiy va metodik vazifalarga ko‘proq vaqt ajratishga imkon beradi. Natijada ta’lim sifatini oshirish uchun samarali sharoitlar yaratiladi.

Sirtqi bo‘lim ish jarayonlarini avtomatlashtirish mamlakatimizda ta’limni modernizatsiya qilish, uning raqamli transformatsiyasini amalga oshirish va talabalarga yuqori sifatli ta’lim xizmatlarini taqdim etish bo‘yicha muhimdir.

Ishning asosiy maqsadi — sirtqi bo‘lim talabalarining ish jarayonlarini avtomatlashtirishga mo‘ljallangan veb-sayt yaratish orqali ta’lim sifatini oshirish va talabalarning o‘quv jarayonini qulaylashtirishdir. Sayt yordamida talabalar fanlardan zarur resurslarga, kurslar va mentorlar haqida ma’lumotlarga, dars jadvali va GPA hisoblash kabi qulay xizmatlarga oson va tezkor kirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shuningdek, ish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali universitet ma’muriyati uchun talabalarning to‘garak tanlashlari, yotoqxona joyini band qilish kabi jarayonlarni soddalashtirish va samarali boshqarish maqsad qilinadi. Natijada, ta’lim jarayoni yanada tizimli, shaffof va interaktiv bo‘lib, talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida samarali muloqot shakllanadi.

Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

1. Sirtqi bo‘limning mavjud ish jarayonlarini o‘rganildi va tahlil qilindi.
2. Talabalar va o‘qituvchilarning ish jarayonlariga qo‘yiladigan funksional talablarni aniqlandi.
3. Sirtqi bo‘lim ish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun zarur texnologiyalar va dasturiy ta’minotni tanlandi.
4. Veb-saytning dizayn va strukturasini ishlab chiqish, uning asosiy bo‘limlarini loyihalashtirildi.
5. Talabalar uchun fanlardan resurslar, kurslar, dars jadvali, GPA hisoblash va boshqa xizmatlarni yaratidi.
6. Universitet ma’muriyati uchun yotoqxona joyini band qilish va to‘garak tanlash jarayonlarini avtomatlashtirildi.

Saytning foydalanuvchiga ko`rinadigan interfeysi quyidagicha.



1-rasm. Onlayn xizmatlar oynasi.

Ishlab chiqilayotgan sayt nafaqat ta’lim jarayonlarini samarali boshqarish, balki talabalarning o‘quv resurslariga, dars jadvali va GPA hisoblash xizmatlariga qulay va tezkor kirish imkonini yaratadi. Shuningdek, yotoqxona joyini band qilish va to‘garak tanlash jarayonlarini avtomatlashtirish orqali universitet ma’muriyati ishini soddalashtirishga ham xizmat qiladi.

Natijada, ta’lim sifati oshadi, ma’muriy ishlar samaraliroq bo‘ladi va talabalarning o‘quv jarayonidagi ishtiroki kuchayadi. Bu esa mamlakatimizda ta’lim sohasida raqamlashtirish va avtomatlashtirish jarayonlarini yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilga adabiyotlar:

1. Шодмонов Д. А. Внедрение цифровых технологий в образование и новые информационные инструменты //Инновационная наука. – 2023. – №. 4-2. – С. 156-159.
2. Шодмонов Д. А. Эффективность использования компьютерных приложений для создания учебных курсов в вузах //Science Time. – 2016. – №. 10 (34). – С. 434-440.